

O'ZBEKISTON SHAHRLARI



Kichik guruhlarga bo'linib, shahrlar haqidagi matnlarni bo'lib oling. Ullarni o'qib, sinfdoshlaringiz uchun o'zingiz bilib olgan qiziqarli ma'lumotlar haqida qisqacha xabarlar tayyorlang.

Toshkent – O'zbekiston poytaxti. Toshkentda qariyb 3 million aholi yashaydi. Poytaxtimiz 2200 yillik tarixga ega. Toshkent – Markaziy Osiyodagi eng katta shahar. Mintaqadagi ilk va eng chiroyli metro Toshkent metrosidir. Toshkent mintaqadagi eng baland teleminorasi, eng katta aeroportiga ega shahardir. Toshkentda 29 ta muzey bor. Bu muzeylardan birida dunyodagi eng qadimiy Mus'haf – Qur'oni Karim saqlanadi.

Buxoro – dunyoga mashhur turizm markazlaridan biri. Buxoro markazida qadimiy bino va inshootlar, ko'chalar saqlanib qolgan. Shuning uchun qadimiy shaharni tomosha qilishga dunyoning turli chekkalaridan sayyoohlar tinimsiz tashrif buyuradi. Buxorodagi Minorayi Kalon, Labi Hovuz maydoni, Chor minor madrasasi kabi tarixiy yodgorliklar noyob tarixiy obidalardir.

Mo'ynoq – yurtimizdagi ajoyib shahrlardan biri. Bu shahar Orol dengizi quriy boshlaganidan keyin mashhur bo'lib ketdi. 60 yil avval Mo'ynoq bahaybat kemalar suzib yurgan dengiz sohilidagi shahar edi. Orol dengizi quriy boshlagach, uning tubi ochilib, ulkan tuz sahrosiga aylandi. Endilikda olimlar-u sayyoohlar Mo'ynoqqa kelib, qurigan dengiz tubini o'rganmoqda.


Oqsaroy

Metro bekati

Atlas



 **Marko Polo Markazi Osiyo orqali Xitoya sayohat qilgan.** U Xitoy va Osiyo mamlakatlariga kelgan **birinchi yevropalik** edi. Vataniga qaytgach, “*Dunyoning xilma-xilligi haqida*” degan kitob yozgan.



Shahrisabz – Amir Temur tug'ilgan qadimiy shahar. Uning 2700 yillik tarixi bor. Bu yerda sohibqiron Amir Temurning Oqsaroy nomli muhtasham qarorgohi saqlanib qolgan. Bu saroyning balandligi hozirgi 25 qavatlik uya teng kelar edi. Taxminan 700 yil oldin bunday mahobatli saroyning qanday qurilgani hozirgacha hammani lol qoldiradi. Shahrisabz iroqi kashtachiligi bilan ham mashhurdir.

Andijon – shoh va shoir, olim Zahiriddin Muhammad Boburdek zotlarni yetishtirgan ko'hna shahardir. O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev, boks bo'yicha jahon championi Hasanboy Do'smatov kabi mashhur insonlar ham Andijon farzandidir. Andijon shirin-shakar mevalari, sabzavot va qovun-tarvuzlari, andijoncha palovi bilan dong taratgan.

Marg'ilon – O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri bo'lib, o'zbek ipakchiligi poytaxti hisoblanadi. Farg'ona vodiyida joylashgan bu shahar qadimdan hunarmandchilik markazi sifatida tanilga. Dunyoning mashhur tikuvchi va dizaynerlari adres, atlas, beqasam, baxmal kabi Marg'ilon gazlamalarining nomlarini yaxshi bilishadi.

Samarqand – yurtimizning sayyoohlar orasida mashhur qadimiy shahri. Bu yerda saqlanib qolgan qadimiy binolarni to'liq ko'rib chiqish uchun bir oy muddat kamlik qiladi. Samarqand 2800 yoshda bo'lib, Olimpiya o'yinlarining tengdoshidir.

Samarqand qadim-qadimdan madaniyat va savdo markazi bo'lgan. Amir Temur davrida esa gullab-yashnagan.

Shahardagi eng diqqatga sazovor obidalar – Registon, Go'ri Amir va Bibixonim madrasalaridir.


Qarshi – qadimgi savdo karvonlari yo'lida joylashgan go'zal shahar bo'lib, 2700 yoshda. Shaharda juda ko'p tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ulardan biri bundan 500 yil avval qurilgan muhtasham ko'prikdir. Bu ko'pri hozirgi kungacha saqlanib qolgan eng qadimiy ko'priklardan biri hisoblanadi. Sahroga yaqin bo'lgani uchun Qarshining iqlimi quruq, issiq bo'ladi.

Termiz – mamlakatimizning eng janubidagi shahar bo'lib, Amudaryo sohilida, Afg'oniston chegarasida joylashgan. Termiz va uning atrofida islom va ungacha bo'lgan turli dinlarga oid qadimiy yodgorliklar bor. Shuning uchun dunyoning barcha arxeologlari bu yerga kelishga intiladi. Termizda O'zbekistonning eng yirik, zamonaviy jihozlangan arxeologiya muzeyi bor.

Ichon qal'a



Registon maydoni




Arxeologiya muzeyi



Buyuk Ipak yo'li – Xitoy bilan Yevropa o'rtafidagi juda ko'plab mamlakatlarni bog'lab turgan qadimiy karvon yo'lidir. Buyuk Ipak yo'li tufayli turli mamlakatlarning aholisi o'rtaida tovarlar, kashfiyotlar, madaniy yangiliklar va ma'lumotlar almashinuvi bo'lib turgan. Bu yo'lni tuyada bosib o'tishga yarim yil ketgan.





Xiva – O'zbekistonning ochiq osmon ostidagi muzey shahri hisoblanadi. Dunyoda bunday shahar-muzeylar sanoqli. Bu noyob qadimiy shaharda binolar, ko'chalar, qal'a devorlari va ustaxonalar saqlanib qolgan. Xivaning eng mashhur joyi – uning markazidagi Ichon qal'adir. Bu yerdan yil bo'yи sayyoohlar qadami uzilmaydi, hunarmandlar rastalari va sharqona bozor gavjum bo'ladi.

Namangan – O'zbekistonning qadimiy va navqiron gullar shahri. Boshqa biror joyda Namangandek ko'chalari gullarga burkangan shaharni uchratmaysiz. Shuning uchun bu yerda har yili an'anaviy gullar festivali o'tkaziladi. Namanganda milliy madaniy an'analar, sharqona odob-axloq nihoyatda kuchli, shu bois shahar doim ozoda, saranjom-sarishta bo'ladi. Xalqimiz o'zbekona lutf bilan "Namanganda poyabzalsiz yursangiz, paypog'ingiz chang bo'lmaydi", deydi.

Nukus – Qoraqalpog'istonning poytaxti. Dunyoda bu shaharni bilmaydigan tasviriy san'at shaydosi yo'q, chunki bu yerda jahondagi eng mashhur Savitskiy nomidagi muzey bor. Shuning uchun Nukus madaniy markazlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Muzey oldidagi ulkan maydonda ko'rgazmalar, sayillar, konsert va boshqa madaniy tadbirlar o'tkazib turiladi.



Suratlarga qarab, bu diqqatga sazovor joylar qaysi shaharda joylashganini topping. O'zbekiston shaharlari haqida bir nechta savollar tayyorlab, sinfdoshlaringiz o'rtaida so'rovnama o'tkazing.



"Men yashaydigan hudud nimasi bilan mashhur?"
degan mavzuda kichik insho yozing.